

JADIDLARDAN QOLGAN MEROS

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUHLAR AKADEMIYASI
MODDIY TA‘MINOT KAFEDRASI SIKL BOSHIG‘I podpolkovnik

Abduraximov Zoxid Normatovich

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUHLAR AKADEMIYASI
MODDIY TA‘MINOT KAFEDRASI KATTA O‘QITUVCHISI podpolkovnik

Mirzayev Joxongir Tursunovich

Jadidlarning milliy davlatchilikka qo‘shgan hissasini o‘rganish dolzarbligicha qolmoqda: *“Mushtarak tariximizning yorqin sahifalarini tashkil etadigan ma‘rifatparvar ajdodlarimizning ibratli faoliyatini, ularning o‘z qimmatini va ahamiyatini hamon yo‘qotmasdan kelayotgan boy merosini hamkor davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar vakillari, taniqli xorijiy olimlar bilan birgalikda teran tadqiq va targ‘ib etish bizning ustuvor vazifamizdir”.*

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, taraqqiyparvar ajdodlarimizning ilg‘or g‘oya va qarashlarini tadqiq etish va tizimlashtirish, Turkiston jadidlarining milliy davlatchilik rivojidagi o‘rni va ta‘sirini o‘rganish, XX asrning birinchi choragida ular tomonidan barpo etilgan davlat tuzilmalarining qonunchilik bazasini tahlil qilish, dunyoviy, huquqiy va demokratik jamiyat qurishga qaratilgan faoliyatiga tarixiy baho berish, Yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renessansni bunyod etishda ushbu merosning mustahkam poydevori bo‘lib xizmat qilishi bilan bog‘liq masalalar bugungi kunning asosiy muhokama mavzulari etib belgilangani alohida ahamiyatga ega.

Shavkat Miromonovich Mirziyoyev

Annotatsiya: Odamlar ongida o‘ziga xos o‘zgarish yasashning uddasidan chiqa bildi. Jamiyatni o‘zgartirish konsepsiyasini yarata oldi va konsepsiya barcha masalalarni qamrab oldi. Yangi avangard jadidlar adabiyoti, yangi dramaturgiyaga asos soldi. Turkistonda birinchi teatrni ishga tushirdi. Ta‘limning yangi shakllarini yaratdi. Ular – ehtimol kichik ko‘rinishda bo‘lgandir, ammo – butunlay yangi madaniyat yaratdi. Odamlar ongida ayollarga nisbatan kichik bo‘lsa-da, o‘zgarish yasay bildi, chunki asarlarida ayollarning jamiyatni rivojlantirishdagi ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zi: yurisprudensiya, iqtisodiy, ijtimoiy, davlat

XIX asr oxiri – XX asrning boshlarida siyosiy, madaniy, iqtisodiy jihatdan inqiroz xolatiga tushib qolgan musulmlarka tufayli rivojlanish past darajada bo‘lgan o‘lkada Turkiston ziyolilari chor Rossiyasining mustamlakachilik zulmidan qutulish, o‘z milliy

davlatchiligini tuzish, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotga yo‘l ochish, xalqqa ziyo tarqatish choralarini ko‘rdi. Bu borada jadidchilik xarakati katta rol o‘ynadi.

Jadidchilik rus mustamlakachiligiga qarshi milliy demokratik xarakat bo‘lib, u o‘sha davr Turkistondagi qoloq iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sharoitda yashayotgan xalqlarni ma‘rifatlashtirish, jamiyat hayotida ijtimoiy va madaniy islohotlar o‘tkazish, pirovardida milliy mustaqillik g‘oyalarini hayotga tadbiiq etish maqsadini o‘z oldiga qo‘ygan edi.

Jadidlar nima ishlarni qilishga muvaffaq bo‘lgan yoki muvaffaq bo‘lmagan, qanday xatolarga yo‘l qo‘ygan va qanday meros qoldirgan? -ular qanday meros qoldirgani men yuqorida gapirib bergan narsalardan ma‘lum bo‘ldi.

Jadidlar nimalarga muvaffaq bo‘ldi? - Odamlar ongida o‘ziga xos o‘zgarish yasashning uddasidan chiqa bildi. Jamiyatni o‘zgartirish konsepsiyasini yarata oldi va konsepsiya barcha masalalarni qamrab oldi. Yangi avangard jadidlar adabiyoti, yangi dramaturgiyaga asos soldi. Turkistonda birinchi teatrni ishga tushirdi. Ta‘limning yangi shakllarini yaratdi. Ular – ehtimol kichik ko‘rinishda bo‘lgandir, ammo – butunlay yangi madaniyat yaratdi. Odamlar ongida ayollarga nisbatan kichik bo‘lsa-da, o‘zgarish yasay bildi, chunki asarlarida ayollarning jamiyatni rivojlantirishdagi ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

Albatta, birdan paranjini tashlab, yuzni ochib, jamiyat ishlarida ishtirok etishga da‘vat etmaydi. Lekin fikrimcha, ular shunga yetib borishi aniq edi, chunki Abdurauf Fitratning men eslab o‘tgan oila haqidagi kitobi asosiy qismi ayolga, uni qanday hurmat qilish va unga qanday munosabatda bo‘lishga bag‘ishlangan. O‘sha kitobda “Qiz bolalar o‘qishi kerakmi?” degan band ham bor. Muallifga ko‘ra, insonning intellektual holati, oladigan ta‘limi ko‘p jihatdan ayollarga, onalarga bog‘liq. Yozishicha, erkak tirikchilik uchun yegulik-ichgulik topish bilan band, ayol esa erkakdan ko‘ra ma‘lumotliroq bo‘lishi shart, chunki u, asosan, bolalar bilan shug‘ullanadi. Darhaqiqat shunday. Ayollar ta‘lim rivojlanganini va ayollar maktabi bo‘lganini, ularda ayollar ta‘lim olib, Sharq mumtoz adabiyoti o‘qitilganini bilamiz. Albatta, men texnikaga oid fanlar haqida gapirayotganim yo‘q, lekin shunday bo‘lsa ham, ayollar ta‘lim olgan. Lekin bu – bizning madaniy merosimiz, umumiy merosimizning bir bo‘lagi. Umuman, bu – nafaqat O‘zbekistonning, qolaversa, barcha xalqlarning, barcha turkiy xalqlarning, turkiy bo‘lmagan xalqlarning, Markaziy Osiyo xalqlarining merosi, chunki bu intellektual muhit mavjudligini, erlar, ularning ongi va intilishlari qanday bo‘lganini ko‘rsatadi.

Masalan, Behbudiy mavzusiga yana bir karra qaytaman. U hajga borganida Bayrut universitetini ziyorat qiladi. Hayratga tushib, “Ey Xudo, bularning laboratoriyalarini qaranglar”, deb yozadi. U kimyo laboratoriyasi bilan tanishadi. “Bu yerda qanday talabalar

va qizlar o‘qiyotganini qarang! Yutuqlar ham shuncha bo‘ladimi! Nega bu musulmon mamlakatida bunday universitet bor, biz ham musulmon mamlakatimiz, lekin Turkistonda oliy darajadagi birorta ham, ha-ha, birorta ham ta‘lim muassasasi yo‘q?”. Albatta, madrasalar ko‘p bo‘lganini bilamiz. Lekin bir paytlar, masalan, X asrda bilim jarchisi bo‘lgan madrasalar XIX asrga kelib, butunlay o‘zgarib ketdi. Bilim olishning hech bir talabiga javob bera olmaydigan bo‘lib qoldi. Jadidlar nimalarni eplay olmadi? Taassufki, ular Turkiston muxtoriyatini tashkil qilganida (muvaffaqiyatsizlikka uchradi) – Qozog‘istonda qanday bo‘lganini bilmayman, lekin Qozog‘istondagi vaziyat boshqacharoq bo‘lgan, chunki ular Rossiyaga, Yevropaga yaqinroq edi. Yana qaytarib aytaman, oliy ta‘lim olgan, Rossiya va hatto chet ellarda o‘qigan odamlar, jadidlar ko‘p bo‘lgan. Bu yerda-chi? Turkiston jadidlari orasida mutaxassislar kam, juda oz bo‘lgan. Ular iqtisodiyotni umuman tushunmagan. Zamonaviy yurisprudensiya, jumladan, jahon yurisprudensiyasi haqidagi tushunchasi juda zaif bo‘lgan. Davlatni boshqarishga kirishish uchun mana shu sohalaridagi bilim yetishmagan. Vaholanki, ular respublika, davlat qurayotgan edi. Ular orasida bunday mutaxassislar bo‘lmagan – ularning kamchiligi shu edi. Katta xatosi bolsheviklarga ishongani bo‘lgan. Men Buxoro va Xiva jadidlarining ularga bunday ko‘r-ko‘rona ishonganini, do‘st deb bilganini, yordam beradi, deb kutganini, davlat to‘ntarishidan so‘ng muxtoriyatni o‘zimiz boshqaramiz, deb o‘ylaganini nazarda tutyapman. Menimcha, ularning kamchiliklari – mana shular.

Xulosa. Barchamizga ayonki, **“Tilda, fikrda, ishda birlik”** degan ezgu g‘oya bilan maydonga chiqqan jadid bobolarimiz xalqlarimizni jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, ularni g‘aflat botqog‘idan qutqarishning asosiy yo‘li – bilim va ma‘rifatda, dunyoviy taraqqiyotni egallashda, deb bildilar.

Ular shu yo‘lda fidoyilik ko‘rsatib, yangi usul maktablari, teatr va kutubxonalar, nashriyotlar ochdilar. Jamiyat a‘zolarining dunyoqarashi va turmush tarzini o‘zgartirish maqsadida gazeta va jurnallar nashr etdilar. Yoshlarni ilg‘or davlatlarga o‘qishga yubordilar.

Shu bilan birga, davlat boshqaruvi, sud-huquq, moliya, soliq tizimlari, yer masalalarini tubdan isloh qilish uchun g‘oyaviy va amaliy harakatlar olib bordilar. Bir so‘z bilan aytganda, ular milliy uyg‘onish, milliy taraqqiyot g‘oyasini ro‘yobga chiqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdilar.

Adabiyotlar ro‘yxti

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси <https://www.gazeta.uz/uz/2020/01/24/president-speech>
2. АБДУАЗИЗОВА Н.А. Туркистон матбуоти тарихи. - Тошкент: Академия, 2000 г.

3. АНДРЕЕВ Гр. Самаркандский журнал “Ойна” и его редактор- издатель Махмуд-ходжи Бегбуди // Туркестанские ведомости. 1915, 17(30) сентября.
4. Махмудхўжа Бегбудий. Танланган асарлар. – Т.: “Маънавият”, 2006.
5. “Ҳақиқат манзаралари”. – Т.: “Янги аср авлоди”, 2007.
6. "Жадид маърифатпарварларининг миллий таълим, матбуот, адабиёт ва санъатни ривожлантиришга қўшган ҳиссаси ва унинг Миллий ғоя тарғиботидаги аҳамияти: Республика илмий-амалий анжумани материаллари.- Т.: 2016 й.

